

SODDA GAP TIPIDAGI MAQOLLAR STILISTIKASI

(”Devonu lug‘otit-turk” materiali asosida)

Sodiqov Qosimjon Pozilovich

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik
kafedrası professori*

Zamanova Dilbar Turginovna

Alfraganus universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning ”Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan turkiy maqollarning stilistik tuzilishi, sodda gap turlari va uning mazmuniga bag‘ishlangan. ”Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan ayrim sodda gap tipidagi maqollar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *XI asr, qavlun, tilshunos olim, ”Devonu lug‘otit turk”, xalq og‘zaki ijodi maqol, sodda gap, yig‘iq gap, yoyiq gap, ot kesim, fe‘l kesim.*

Kirish. Bizga ma‘lumki, xalq og‘zaki ijodi hisoblangan maqollar qadimdan hozirgacha yashab kelmoqda. Bu asosan xalq tomonidan yaratilgan bo‘lib, o‘gizdan-og‘izga o‘tib bizgacha etib kelgan. Ayni chog‘da, maqollar tilda aks ettirilish bilan bir qatorda badiiy asarlar, hikoyalar, ertaklarda ham nomoyon bo‘ladi. Maqollarda so‘z qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so‘zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so‘z qo‘shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo‘ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida bor bo‘lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko‘ra mushtarak hisoblanadi [1].

Maqol janrining o‘rganilish tarixi XI asrning ikkinchi yarmida Mahmud Koshg‘ariyga borib taqaladi. Turkiy adabiyotning nodir

namunasi hisoblangan "Devonu lug'otit turk" Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yozilgan bo'lib bunda ham 400 ga yaqin maqol va matallardan go'zal namunalar keltirilgan va bularning aksariyati hozirgi kunda ham ishlatilmoqda. "Maqol" atamasi arabcha qavlun – gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan. Maqollar xalq tajribasidan o'tgan, voqea-hodisalarning so'zdagi o'zgarmas ifodasidir[2]. Maqollarda badiiylik kuchli. Jumla qurilishi va uslubiga ko'ra ular she'riy asarga tenglashadi[3]. Maqollar mustaqil janr sifatida estetikaning shakl va mazmun birligi qonunini namoyish etishda juda ham qulaydir. Maqollarda badiiy tasviri vositalarda qisqalikka intilish maqollarga katta estetik qudrat bag'ishlaydi.

Mana shu jihatdan qaraganda, maqollarning tuzilishi ham o'ziga xosdir. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asaridan o'rin olgan maqollar gap qurilishiga ko'ra sodda gap va qo'shma gap shaklida berilgan. Bu maqollarning bir qismini sodda gaplar tashkil qiladi. Sodda gap – o'z tarkibida birgina predikativ birlikka ega bo'lgan, ma'lum fikr ifodalay oladigan, grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan sintaktik birlik. Sodda gap bir predikativ aloqani namoyon qiluvchi sodda birlik sifatida ikki yoki undan ortiq sodda predikativ birliklarning qo'shilmasidan iborat bo'lgan qo'shma gapga qarama-qarshi qo'yiladi.

Sodda gap tuzilish asosining miqdoriga ko'ra, 2 turli bo'ladi; ikki tarkibli, bir tarkibli gaplar. Ikki tarkibli gapning predikativ asosi ega va kesim bo'laklaridan iborat bo'ladi. Bir tarkibli gapning predikativ asosi ega yoki kesimga ega bo'ladi. O'zbek tilida bir tarkibli gaplarning quyidagi turlari bor: shaxsi aniq gap, shaxsi noma'lum gap, shaxsi umumlashgan gap, shaxssiz gap. Qadimgi turkiy maqollarning aksariyatini shaxsi umumlashgan gaplar hosil qiladi. Bunday maqollar nasihat, xulosa chiqarish mazmunida bo'ladi[3].

Asosiy qism. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida olinga quyidagi maqolni ko'rib chiqamiz.

Suw körmäginčä etük tartma. – "Suvni ko'rmaguncha etikni echma" (DLT. 469). Tartma-inkor fe'li gapning kesimidir. Gapning egasi sen olmoshidir, u yashiringan holda umumga murojaat qilyapti. Asosan bunday gaplarni kesimi odatda 11 shaxs birlikda buyruq maylidagi fe'l

bilan ifodalanib, nasihat butun xalqqa qaratilgan bo‘ladi. Maqolda sodir bo‘lmagan ishga ishonib qolmaslik uqtiriladi. Yoki yana biri: *Bor bolmadip sirkü bolma*. – ”Sharob bo‘lmay turib, sirka bo‘lma”. Bu maqol o‘zini qarilarga o‘xshatadigan yoshlarga qarata aytiladi (DLT. 364). Bu maqolning kesimi bolma inkor fe‘lidir. Bu maqoldaa ham gapning egasi sen olmoshi bo‘lishiga qaramay, pand-nasihat butun ommaga qarata aytilganini ko‘rishimiz mumkin.

Suw içürmäsikä süt ber. – ”Suv ichirmasga sut ber”. Ya’ni, ”Senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil”. Bu maqolda ikki shaxsning ishtiroki borligi ko‘rishimiz mumkin. Biri – buyuruvchi, ikkinchisi – bajaruvchidir. Biz bajaruvchini butun xalq deb xulosa qilamiz. Bu maqol ham shaxsi umumlashgan gapga misol bo‘la oladi. Garschi shaxsi sen olmoshi bo‘lsa-da, shu yashiringan ega orqali butun ommaga murojaat qilinganini ko‘rishimiz mumkin (DLT. 98) (367).

Mahmud Qoshg‘ariyning ”Devonu lug‘oti-t-turk” asarida maqollarning kesimi ot va fe‘l kesim shaklida uchraydi. Ko‘p maqollarda kesimi ot-kesim bo‘lib kelganda yordamchi fe‘l tushib qolganini kuzatamiz. Masalan: *Oğlan biligsiz*. Ya’ni: ”Bolada aql yo‘q” (DLT 155). Bu maqol sodda gap tipidagi, kesimi ot-kesim shaklidagi maqol bo‘lib, turur so‘zi tushurib qoldirilgan. Yordamchi fe‘l tushurilib qoldirilgan bo‘lsa ham uning o‘rni bilinmaydi, mazmun o‘zgarmaydi. Maqolning to‘liq shakli quyidagicha: *Oğlan biligsiz turur* – ”Bolada aql yo‘qdir”. Aslida ikkala ko‘rinishda ham mazmun bir xil, lekin maqolga xos bo‘lgan ixchamlik birinchi ko‘rinishda namoyon bo‘lgan.

Qut belgisi-bilig. Ma’nosi: ”Baxtning belgisi bilim va aqlidir” (DLT. 171). Bu maqol ham yuqorida aytib o‘tgan maqol singari bo‘lib, durur so‘zi tushurib qoldirilgan. Bu maqoldagi durur so‘zining tushurilib qolishi *Grammatik* qoida bilan bog‘liq. Bilamizki, qoidada shunaqa deyilgan. Gapning kesimi bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanib, bog'lama yoki kesimlik qo‘shimchasi bo‘lmasa egadan keyin tire qo‘yiladi.

Kizlänçü kelindä. Ma’nosi: ”Yashirin narsa kelinda bo‘ladi, chunki u yaxshi narsani eri uchun yashirib qo‘yadi” (DLT 407). Bu maqolda ham *kelindä* so‘zidan keyin *turur* so‘zi qo‘yilishi kerak edi, ammo tushurib qoldirilgan bo‘lsa-da, maqoldan anglashilishi kerak bo‘lgan mazmun

saqlanib qolgan, maqol mazmuniga putur etkazmagan. Aksincha, uni ixchaam holatga keltirgan. Bu maqol faqat ikki soʻz: ega va toʻldiruvchidan tarkib topgan boʻlib, gapning kesimi yashiringan.(4)

Erdam baši til. Maʼnosi: "Odob-fazilatning boshi til". Bu erda "yaxshi soʻz" demakdir (DLT 137). Maqolning oxirida kelishi mumkin boʻlgan *turur* soʻzi tushurilgan, ammo bu soʻzni maqol oxirida qoʻllash mazmundan kelib chiqib talab qilinmaydi. Bu maqol ham sodda gap shaklidagi maqol. Bu maqol quyidagi holda ham ishlatilishi mumkin.

Til erdam baši. – Til odobning boshidir. Ammo soʻzlarning oʻrin almashishi maqolning taʼsirchanligini susaytiradi. Baʼzi hollarda fikr taʼsirchanligini oshirish uchun maqollarda sintaktik jihatdan anʼanaviy gap qurilishidan qoshish maqsadga muvofiq boʻladi.

Sodda gap yigʻiq yoki yoyiq boʻlishi mumkin. Yigʻiq sodda gap bosh boʻlaklardangina, yaʼni birgina predikativ sintagmadangina iborat boʻladi, yoyiq sodda gap bosh va ikkinchi darajali boʻlaklardan tashkil topadi, yaʼni uning tarkibida predikativ sintagma bilan birga boshqa sintagmalar ham boʻladi. Mahmud Qoshgʻariyning "Devonu lugʻoti-t-turk" asarida keltirilgan maqollarda sodda yigʻiq gap holdagi maqollar ham uchraydi. Quyida ulardan namunalar keltiramiz.

Önäkäy irpäldi. Manosi: "Ishning tuzalishiga qasd qilingan boʻlsa ham, lekin buzildi (DLT. 15).

Kizlänčü kelindä. Maʼnosi: "Yashirin narsa kelinda boʻladi, chunki u yaxshi narsani eri uchun yashirib qoʻyadi" (DLT. 407).

Oğlan biligsiz. Yaʼni: "Bolada aql yoʻq". Endi shu asarda berilgan sodda yoyiq gap holdagi maqollarning ayrimlari bilan tanishamiz. *Böri qoşnisin emäs.* Maznosi: "Chiyaboʻri qoʻshnichilik haqiga rioya qilib, qoʻshnisini emaydi". Bu maqol qoʻshnichilik haqiga rioya qilishi kerak boʻlgan kishilarga qarata aytiladi.(DLT 400). Bu maqoldagi "böri" soʻzi ega "qoşnisin" toʻldiruvchi "yemäs" inkor felʼi kesim boʻlib kelyapti.

Qari öküz balduqa qorqmas. Maʼnosi: "Qari hoʻkiz boltalan qoʻrqmaydi". Chunki u odatlangandir (DLT. 468). Bu maqoldagi "öküz" soʻzi ega, "qorqmas" inkor felʼi kesim "balduqa" soʻzi toʻldiruvchi, "qari" soʻzi aniqluchi boʻlib kelyapti.

Quş tuzaqa mäy üçün ilinur. Ma'nosi: "Qush tuzoqqa xo'rakni deb ilinadi". Bu maqol oziq izlab, qiyinchilikka yo'liqqan kishiga qarata qo'llanadi (DLT. 444). Bu maqoldagi "*quş*" so'zi gapning egasi "*ilinur*" gapning kesimi "*mäy üçün*" so'zi to'ldiruvchi "*tuzaqa*" so'zi hol bo'lib kelmoqda.

Suw içürmäskä süt ber. Ma'nosi: "Suv ichirmasga sut ber". Ya'ni, "Senga yomonlik kilganga ham yaxshilik qil". Bu fe'llarda ishda ikki shaxsning borligi qoidaga muvofiqdir. Biri – buyuruvchi, ikkinchisi – bajaruvchidir (DLT. 98) (367). Bu maqoldagi "*Suw içürmäskä*" so'zi ega "*süt*" so'zi to'ldiruvchi tarkibida –ni tushum kelishigi qo'shimchasi yashiringan holda kelmoqda "*ber*" so'zi kesim bo'lib kelmoqda.

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, turkiy maqollarda qaysi soha, qaysi mavzu haqida fikr yuritilmasin ko'zda tutilgan muammo atroflicha yoritiladi. Bu esa ajdodlarimizning naqadar dono ova ijodkor bo'lganidan dalolat beradi. Biz yuqorida keltirgan misollardan juda ko'plab namunalar topishimiz mumkin. M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida kelgan maqollar xalqning dunyoqarashini ifodalab beradi. Yozuvchining maqollarda o'xshatishlar, metaforalar va boshqa badiiy vositalardan mohirona foydalanishi asarning o'ziga xos qiymati yanada oshiradi. M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarda keltirilgan misollarning zaminida olam-olam ma'no yotadi. Ular bevosita xalq hayoti, turmush tarzi, madaniyatini hikoya qiladi. Ommabop va xalqchil tarzda yozilganligi sababli, kitobxon qalbiga tez yetib boradi. Xalqimiz tomonidan xalq maqollari mazmun jihatidan chuqur ma'noga egadir. Bundan tashqari, ular badiiy jihatdan ham juda mukammaldir. [5]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi.// "Mumtoz so'z", 2010.
2. "O'zbek xalq maqollari". X.Suvonqulova "Adabiyot uchqunlari", -T.: 2014. -B. 29.
3. L.Ikromova. "Maqol va matallarning qiyosiy chog'ishtirma tahlili (fransuz va o'zbek maqol va matiriallari misolida)." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 45. (2024). 14.

4. Sodiqov Q. Eski o‘zbek yozma adabiy tili. -T., 2021. -B. 23.
5. *Qarang*: Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk. Nashrga tayyorlovchi: Q.Sodiqov. -T.: G‘afur G‘ulom, 2017.
6. Ismailov, G. M. (2016). Phraseological picture of the world in the Turkic languages. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(43), 5-7.
7. Rahmatov, M. (2025). Qo‘shma fe‘l komponentlari inversiyasi. In *Conferences* (Vol. 1, No. 01).